

"O'ZKIMYOSANOAT" AJ BOLALARGA QUVONCH ULASHDI

// 18 March 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/bolalar-ftiziatriya-sihatgohi>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17- fevraldagi "2022-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiyosanoat" AJ tomonidan Toshkent viloyati Bolalar ftiziatriya sihatgohida Navro'z bayrami munosabati bilan hayriya tadbiri o'tkazildi.

Bayram dasturi doirasida tashkillashtirilgan sumalak, palov, bayramona dasturxon, madaniy tadbirlar va maxsus sovg'alar bolajonlarga bir olam quvonch ulashdi. Sihatgohning iqtidorli o'g'il-qizlari tomonidan tayyorlangan ajoyib raqs, she'r va qo'shiqlar esa barchani xursand qildi.

"O'zbekiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

Tadbirdan fotosuratlar:



















